

MIRATIVLIK KATEGORIYASINING LINGVISTIK VOQELANISHI

Aliyeva Zebo Akram qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada mirativlik kategoriyasining lingvistik tarixi, tilshunoslikda o'rganilishi, evidensiallik kategoriyasi bilan o'xshash va farqli jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: kutilmagan xabar, "tayyor bo'lmagan ong", admirativ, Scott Delancey, evidensiallik.

Mirativlik atamasi ilk bor Jakobsen tomonidan 1964-yilda inferensial evidensiallik kategoriyasi tarkibida ishlatilgan. Keyinchalik, Alban va Bolqon tillari lingvistikasida "admirativ" atamasini mirativlik hodisasidan ko'ra kengroq hamda evidensial va modal ma'nolarda uchratishimiz mumkin (Friedman 2003). Biroq Scott DeLancey 1997-yilda "mirativlik" deb nomlangan alohida kategoriyani grammatik kategoriya sifatida tilshunoslikka olib kirdi.

Mirativlik so'zlovchining "tayyor bo'lmagan ong" iga kutilmagan yangi ma'lumot yetkazilishi natijasida paydo bo'ladigan nutqdagi ajablanish, hayratlanish holatlariga nisbatan qo'llaniladi. DeLancey birinchilardan bo'lib mirativlik hodisasi, evidensiallik bilan bo'g'liq bo'lishiga qaramasdan, uning semantik va grammatik tomondan o'ziga xos farqlari borligini aniqlagan (DeLancey 1997). Keyinchalik, Lazard mirativlikni ko'p hollarda birinchi darajali bo'lmagan voqeilikni qamrab oluvchi "mediativlik" kategoriyasining kengaytmasi sifatida ko'rib chiqish mumkinligini taklif qiladi.

Til nuqtai nazaridan, mirativ ma'nolar har doim ham evidensiallik orqali ifodalanishi shart emas ya'ni, mirativlik boshqa turkumning oddiy ifodasi emas, balki o'ziga xos alohida grammatik kategoriya bo'lishi mumkin. Mirativ kategoriyalar ko'pincha birinchi shaxs ishtirokida sodir bo'ladi. Mirativlikning kichik evidensial tizimlarga semantik jihatdan o'xshashliklari mavjudligi sababli, evidensiallik strategiyalari mirativlikka aloqador bo'lishi mumkin. Evidensiallik tizimlaridagi turli atamalarni qo'llanilishi mirativ ma'nolarni alohida hodisa sifatida qaralishiga to'sqinlik qilib kelgan. Ko'pincha bunday ma'nolarni evidensiallikning bir turi sifatida baholaydigan tilshunoslar ham uchraydi.

DeLanceyning fikricha mirativlik ma'lumot manbasi bilvosita yoki bevosita bo'lishidan qat'iy nazar so'zlovchi uchun hayratlanarli yoki yangi ma'lumot bo'lishi kerak [1,33]. Ayhenvald mirativlikni insonning kognitiv ongi bilan bog'laydi hamda har qanday kutilmagan xabarga so'zlovchining tayyor bo'lmagan ongi va hayratini ifodalaydi degan tasvirni beradi. Mazkur ta'rif va tasvirlarga asoslangan holda mirativlikni ifodalovchi turli lisoniy vositalar mavjudligiga guvohi bo'lishimiz mumkin.

Evidensiallik inferensial, mish-mish, reportativ kabi bir qancha ma'no va tushunchalarni qamrab oladi. Ammo, mirativ ma'nolarda evidensiallikdan farqli o'laroq hayratlanish, ajablanish asosiy o'zakni tashkil qiladi (cf. Aksu-Kov 2000, Johanson 2003).

Reportativ, kuotativ, mish-mish kabi hodisalarda hikoya qilingan ma'lumot boshqa shaxs nomidan amalga oshiriladi. Bu ingliz tilida *reportedly*, *allegedly*, *as they say* va boshqa kirish so'zlar bilan ifodalanadi.

Masalan: 'Ayla is/was reportedly staying with her friend.'

Inferensial: shaxsiy tajribalar yoki bilvosita dalillarga asoslanib so'zlovchining xulosasini ifodalaydi. Bu ingliz tilida *as far as the speaker understands/understood* kirish so'zlari yordamida ifodalanadi.

Perseptional/Mirativlik: biror bir voqea va hodisani kutilmaganlik darajasi yuqori bo'lishi va unga nisbatan hayratlanish, ajablanishni ko'rsatadi (Aksu-Kov and Slobin 1986). So'zlovchi o'zi so'zlayotgan voqea-hodisani bevosita guvohi bo'ladi.

Masalan: 'Oh, the baby has drunk all the milk!'

Qayd etish joizki, har bir tilda “hayrat”, “yangi va tinglovchi uchun kutilmagan ma'lumot” ma'nolari alohida kategoriyalarni hosil qilishi ham mumkin, o'zbek tilida mirativlikka xos gaplar his-hayajon gaplar tarzida alohida kategoriya sifatida ham o'rganiladi. His-hayajon gaplardan farqli o'laroq mirativlik ma'lum tuzilmalarni, modal munosabatlarni ham qamrab oladigan kategoriya sifatida talqin etilmoqda. Ammo, DeLancey (1997, 2001) taklif qilgan “mirativlik” atamasi ilk bor lingvistik kategoriya sifatida ko'rsatib o'tilgan.

DeLanceyning aytishicha, mirativ qurilmalarni bu davrgacha evidensiallikning bir qismi sifatida baholangan. Hozir esa mirativlik va evidensiallik turlicha kategoriyalar sifatida lisoniy jihatdan tadqiq etilmoqda. Ko'pgina tillarda mirativlik ifodasi evidensiallik tizimlari bilan grammatik bog'liqlikka ega emas. Boshqa tillarda esa, ba'zan evidensiallik hodisasi kontekst ichida mirativlik ma'nosini ko'rsatishi mumkin va shu sababdan “mirativ strategiyalar” deb hisoblanishi mumkin (Ayhenvald 2004: 195-216).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Delancey S. The semantics and pragmatics of mirativity: a constructional account. – Mouton de Gruyter: 1997. – P 33-52.
2. Lazard G. Mirativity, Evidentiality, Mediativity and other. Linguistic typology. – Mouton de Gruyter: 1999
3. Peterson T. Mirativity in Morphology. – Actefore.com. 2020. – 113 p.
4. Maisak, Timur & Sergei Tatevosov. 2007. Beyond evidentiality and mirativity: Evidence from Tsakhur. In Zlatka Guentchéva & Jon Landaburu (eds.), L'énonciation médiatisée II. Le traitement épistémologique de l'information: Illustrations amérindiennes et caucasiennes, 377–406. Leuven: Peeters.
5. Olbertz, Hella. 2009. Mirativity and exclamatives in functional discourse grammar: Evidence from Spanish. In Evelien Keizer & Gerry Wanders (eds.), The London papers I (Web Papers in Functional Discourse Grammar 82), 66–82. http://home.hum.uva.nl/fdg/working_papers/WPFDG-82_Olbertz.pdf
6. Maslova, Elena. 2003a. Evidentiality in Yukaghir. In Aikhenvald & Dixon (eds.), 219–236
7. Холиков, Б. (2018). Детектив романларда воқеликнинг бадиий талқинини тизимли моделлаштириш (Марио Пьюзонинг «Чўқинтирган ота» («The godfather») ва Тоҳир Маликнинг «Шайтанат» асарлари мисолида). Фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган докторлик (PhD) диссертацияси автореферати. Фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган докторлик (PhD) диссертацияси автореферати. Фал. фанл. докт.(PhD) дисс.
8. Khayrullaev, K. Z. (2001). The relation of word, word composition and sentence to the predicativeness. Abstract of candidate dissertation.–Tashkent.
9. Хайруллаев, Х. (2002). Предикативлик ҳодисаси ва унинг ифода объектлари.
10. Хайруллаев, Х. (2009). О лингвистической природе уровней языка и речи. Вопросы филологических наук, (2), 78-79.
11. Турниёзов, Н., Турниёзова, К., & Хайруллаев, Х. (2009). Структур синтаксис асослари.
12. Хайруллаев, Х. З. (2001). Сўз, сўз бирикмаси ва гапнинг предикативликка муносабати. Номзод. дис автореферати. Тошкент.